

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING SINFDAN TASHQARI ISHLARDA FAOLLIGINI OSHIRISH

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
Xaytboyeva Maftuna Shomurod qizi
Nukus davlat pedagogika instituti

O'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar xilma-xildir. Ular ichida sinfdan tashqari ishlar muhim ahamiyatga egadir. Sinfdan tashqari ishlar nima?,unga nimalar kiradi degan savollar yuzaga keladi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda o'quvchilar o'rtasida turli mavzularda kechalar, ommaviy tadbirlar, bellashuvlar o'tkazish, ekskursiyalarga borish, kino va teatrlarga jamoa bo'lib birgalikda borishni yo'lga qo'yish kabi ishlar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlarda qiziqarli mashg'ulotlarni tashkil qilish o'quvchilarni faollikka undaydi. Faollik o'z-o'zidan kelmaydi albatta. Bu albatta o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir. Qachonki o'qituvchining oldiga qo'ygan maqsadi aniq, o'lchamli, ahamiyatli, rejaga asoslangan va vaqt bilan chegaralangan bo'lsa samaradorlik ham faollik ham ta'minlanadi. Undan tashqari o'qituvchining chuqur bilimi, malakasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi, axborot kommunikatsion vositalardan foydalana olishi kerak va albatta doimo mahoratli pedagog o'qishdan va izlanishdan to'xtamasligi kerak.

Qaysi sohada bo'lmasin o'qituvchi bo'lish sharafliligi va ma'suliyatli kasb sanaladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lishning nimasi qiyin? yosh bolaga dars berish osonku?. Yuqori sinflarga dars berish murakkab deb nolinadigan o'qituvchilar ham oramizda yo'q emas. To'g'ri bir qaraganda boshlang'ich sinf o'qituvchising vazifasi yuqori sinf o'qituvchisiningikiga nisbatan sodda va

yengilroq tuyulishi mumkin. Aslida bunday emas. Chunki boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi fanning barcha yo'nalishlaridan atroflicha bilimga ega bo'lishi, fanlararo integratsiyani uzviy bog'lagan holda umumlashtira olish mahorati bo'lishi kerak. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari bilan ishlash o'qituvchidan katta mas'uliyat, sabr-qanoat, iroda, yuqori darajada psixologik tayyorgarlikni talab etadi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchini kelajak hayotga tayyorlashdan iboratdir. O'quvchi kundalik ishlarning davomi sifatida sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali turli mazmundagi suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, kechalarni tayyorlashda ishtirok etadi. Qolaversa bular orqali ma'naviy dunyosi boyib, kengayib boradi bu o'quvchilarga yomon illatlar begona bo'ladi. Har qanday sinfdan tashqari mashg'ulot oldiga vazifalarni qo'yish shart. Sinfdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy ishlar o'qituvchining yillik ish rejasida aniq ko'rsatilgan, maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. O'qituvchi ko'proq o'zlashtirishi qiyin bo'lgan, darsga faol qatnashmaydigan, o'quvchilar bilan do'stona munosabat qilishi qiyin bo'lgan o'quvchilarni sinfdan tashqari ishlarga ko'proq jalb qilib, ularning faolligi oshirsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'qituvchi ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda quyidagi pedagogik talablarga amal qilishi kerak:

- O'quvchining yoshi, ruhiy holatiga mos bo'lishi;
- Darsda olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilishi ;
- Aniq maqsad va reja asosida uyushtirilishi;
- Tadbir orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida hamlorlik, uyushqoqolik, o'zaro yordam, jamoa bo'lib ishlash kabi axloqiy sifatlarining tarkib toppish;

Sinfdan tashqari mashgʻulotlarda oʻquvchilarning faolligini oshirishda oʻtkaziladigan bellashuv, musobaqalarni va ommaviy tadbirlarni mavzularga ajratish maqsadga muvofiq boʻladi.

Masalan:

➤ Intelektual bahs munozara va viktorinalar (“Zakovat”, “Yosh kitobxon”, “Jismoniy tarbiya va sport oʻyinlari (Badantarbiya mashqlari, jismoniy mashqlar asosidagi jismoniy mashqlar),

➤ Maʼnaviy – maʼrifiy tadbirlar (Bayram kunlariga atalgan tadbirlar, buyuk allomalarning tavallud ayyomiga bagʻishlangan kechalar, fan bayramlari)

➤ Milliy xalq oʻyinlari (Oq terakmi- koʻk terak”, “Doira oʻyini”

Qaysidir oʻquvchilarda shʼer aytishga rol ijro etishga, qoʻshiq kuylashga va tadbirlarga boshlovchilik qilishga isteʼdodi boʻladi. Shu tarzda oʻquvchilardan iborat jamoa shakllanadi. Har bir guruhga nom beriladi. Bunday tarzda guruhlariga nom berish oʻquvchilarni yanada ruhlantiradi, kelajakda oʻzlari qiziqqan sohaga yoʻnaltirib, dars va darsdan tashqari mashgʻulotlardagi shaxsiy faolligini oshiradi. “Zakovat” intellektual oʻyini oʻtkazilganda dastlab guruhlariga boʻlinadi, har bir guruh oʻz nomi va shioriga ega boʻlishadi. Ikki tarafda bu guruhlar oʻzaro bellashishadi. Ularning savol-javoblari hakamlar hayʼati tomonidan baholab boriladi. Umumiy ballar hisoblanib gʻolib jamoa aniqlanadi. Gʻolib boʻlgan jamoa va faol qatnashgan oʻquvchilarga ragʻbat sifatida sovgʻa va diplomlar beriladi. Faol qatnashgan guruh aʼzolarga “Eng chaqqon oʻquvchi”, Eng zukko oʻquvchi”, “Eng bilimdon oʻquvchi” va boshqa nominatsiyalarda oʻquvchilar taqdirlanishadi. Bu esa oʻquvchilarni ruhlantiradi, bunday tadbirlarda yana qatnashishga undaydi va jamoaviy ishlarda faolligini oshiradi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish kerakki, sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda maktab va sinf rahbari ish rejalarida oʻquvchilar bilan olib boriladigan

ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish, kadrlar malakasini oshirish, maktab o'qituvchilari orasida seminar, anjumanlarni tashkil etish kabi masalalarni rejalashtirish hozirgi kunning muhim talablaridan biridir. O'quvchilar faolligini oshirishda sinfdan tashqari tadbirlar asosida ularning qiziqishlarni belgilab olish va mashg'ulotlarga jalb etish masalasi o'qituvchining oldida turgan bugungi dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunning talabi ham shudir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang'ich ta'lim jurnali 2016-yil 2-son fevral.
2. Pedagogika Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik /O'.M.Asqarova, M.Hayitboyev, M.S.Nishonov O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,-T.: "Talqin", 2008.-288 b